



O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi
Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi

100084, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi, 1"A" uy

Telefon: (998 71) 203-81-81, (998 71) 203-27-77

Elektron pochta: farmagentlik@exat.uz, info@uzpharmagency.uz

2023-yil "14" 06

№ 20/1504

**Dori vositalarini chakana realizatsiya
qiluvchi tashkilotlar**

XABARNOMA

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligiga (keyingi o'rinda farmagentlik deb ataladi) "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi" DUKdan (keyingi o'rinlarda Davlat markazi) 2023-yil 30-maydagi 29/12-03072-sonli xat orqali Toshkent shahridagi "Abror Nur Pharm" MCHJ dorixonasidan xarid qilingan **550323 seriyadagi, yaroqlilik muddati 11.2025-yilga qadar bo'lgan (ishlab chiqaruvchisi JAJ "Galichfarm") "L-lizin Essinat Ineksiya uchun eritma 5 ml"** dori vositasi Davlat markazi tomonidan o'tkazilgan ekspertiza natijalariga ko'ra, **qalbakilashtirilgan dori vositasi ekanligi** haqidagi rasmiy xabar kelib tushgan.

Ushbu dori vositasini muomalasiga chek qo'yish maqsadida, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan, davlat ro'yxatidan o'tmagan, qalbakilashtirilgan dori vositasi zudlik bilan muomaladan chiqarilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 185-son qaror bilan tasdiqlangan Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlarni ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda muomaladan chiqarish va yo'q qilish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda yo'q qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'isida"gi Qonunining 18-19 va 20 moddalarida qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini ishlab chiqarish, sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish hamda ulgurji va chakana realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlab qo'yilgan.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ushbu huquqbuzarliklar ma'muriy va jinoiy javobgarliklar bilan bir qatorda litsenziya talab va shartlarining qo'pol buzilish holati deb baholanib, litsenziyani bekor qilinishiga asos bo'lishi haqida Sizlarni OGOHLANTIRIB, huquqbuzarlik holatiga yo'l qo'ymaslik va uni bartaraf etish choralari ko'rishingizni so'raymiz.

Direktor

U.Egamov